



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGIDA
DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZILDI
RO'YXAT RAQAMI: 3756
2026 - yil 19 - Yanvar

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRINING BUYRUG'I

Olis (chekka) va notarius lavozimiga talab yuqori bo'lmagan hudud (notarial okrug)larda davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga talabgorlarni Oliy malaka komissiyasi tomonidan suhbat asosida tayinlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi [Qonuni](#), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar [to'g'risida](#)"gi va 2025-yil 9-sentabrdagi PQ-280-son "Notariat institutini yanada rivojlantirish hamda sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar [to'g'risida](#)"gi qarorlariga muvofiq buyuraman:

1. Olis (chekka) va notarius lavozimiga talab yuqori bo'lmagan hudud (notarial okrug)larda davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga talabgorlarni Oliy malaka komissiyasi tomonidan suhbat asosida tayinlash tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Mazkur buyruq O'zbekiston Notarial palatasi bilan kelishilgan.
3. Mazkur buyruq 2026-yil 1-apreldan boshlab kuchga kiradi.

Vazir
2026-yil 13-yanvar
1-mh-son



TASHKULOV AKBAR
DJURABAYEVICH

Kelishildi:

Rais
2025-yil 15-dekabr



ASHUROV DILSHOD
RUSTAMOVICH

O'zbekiston Respublikasi adliya vazirining
2026-yil 13-yanvardagi 1-mh-son
buyrug'iga
ILOVA

**Olis (chekka) va notarius lavozimiga talab yuqori bo'lmagan hudud (notarial okrug)larda davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga talabgorlarni Oliy malaka komissiyasi tomonidan suhbat asosida tayinlash tartibi to'g'risidagi
NIZOM**

Mazkur Nizom olis (chekka) va notarius lavozimiga talab yuqori bo'lmagan hudud (notarial okrug)larda (bundan buyon matnda notarial okrug deb yuritiladi) davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga talabgorlarni Oliy malaka komissiyasi tomonidan suhbat (bundan buyon matnda suhbat deb yuritiladi) asosida tayinlash tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Suhbat O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Oliy malaka komissiyasi (bundan buyon matnda komissiya deb yuritiladi) tomonidan o'tkaziladi.

2. Suhbat o'tkazishni tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash maqsadida komissiyaning ishchi organi faoliyat yuritadi.

Ishchi organning shaxsiy tarkibi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi (bundan buyon matnda Vazirlik deb yuritiladi) Inson resurslari boshqarmasi hamda Notariat, advokatura va mediatsiya boshqarmasining soha bo'yicha mas'ul xodimlari orasidan shakllantiriladi va komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Ishchi organ o'z faoliyatini komissiya raisining rahbarligida amalga oshiradi.

3. Suhbat O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 9-sentabrdagi PQ-280-son [qarori](#) bilan tasdiqlangan Davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga yagona tanlovda ishtirok etmagan holda suhbat asosida notariuslar tayinlanishi mumkin bo'lgan olis (chekka) va notarius lavozimiga talab yuqori bo'lmagan hudud (notarial okrug)lar ro'yxatida (bundan buyon matnda Ro'yxat deb yuritiladi) keltirilgan notarial okruglar uchun o'tkaziladi.

4. Suhbat Ro'yxatdagi notarial okruglarda davlat notarial idorasi notariusi lavozimi ta'sis etilganda yoki shunday notarius lavozimi bo'sh bo'lgan taqdirda ushbu notarius lavozimini to'ldirish maqsadida o'tkaziladi.

5. Suhbat jarayoni audio va videoyozuvlarda qayd etib boriladi.

2-bob. Suhbatni tashkil etish

6. Talabgorlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari (bundan buyon matnda hududiy adliya organlari deb yuritiladi) huzuridagi hududiy komissiyaning xulosasi asosida suhbatda ishtirok etishi mumkin.

Hududiy adliya organlari huzuridagi hududiy komissiya (bundan buyon matnda hududiy komissiya deb yuritiladi) hududiy adliya organi birinchi rahbarining buyrug‘i bilan O‘zbekiston Respublikasi Notarial palatasining tegishli hududiy boshqarmasi vakillari, notariuslar hamda adliya organlarining xodimlari orasidan besh nafardan to‘qqiz nafar kishigacha bo‘lgan tarkibda uch yil muddatga toq miqdorda tuziladi.

7. Hududiy komissiya raisining taqdimnomasiga ko‘ra, hududiy adliya organi birinchi rahbarining buyrug‘i bilan komissiya tarkibi o‘zgartirilishi yoki qayta tasdiqlanishi mumkin.

8. Hududiy adliya organi birinchi rahbarining notariat sohasiga rahbarlik qiluvchi o‘rinbosari qoida tariqasida hududiy komissiya raisi hisoblanadi.

Hududiy adliya organi notariat, advokatura va mediatsiya bo‘limining (sho‘basining) notariat sohasi bo‘yicha mas‘ul xodimi hududiy komissiya kotibi etib tayinlanadi.

9. Hududiy komissiya talabgorlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar yuzasidan qarorlar qabul qilishda mustaqil hisoblanadi va uning faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi.

10. Hududiy komissiya o‘z faoliyatini mazkur Nizom hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

11. Ro‘yxatdagi notarial okruglarga suhbat o‘tkazish uchun Vazirlik tomonidan quyidagi holatlarda “Inson va qonun” gazetasida va vazirlikning rasmiy veb-saytida e‘lon beriladi:

yagona tanlovda ishtirok etish uchun birorta ham talabgor bo‘lmasa;

yagona tanlovdan birorta ham talabgor muvaffaqiyatli o‘ta olmagan taqdirda.

Suhbat o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘lon qo‘shimcha ravishda boshqa ommaviy axborot vositalarida hamda hududiy adliya organlari ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida ham berilishi mumkin.

12. Suhbat o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘londa quyidagilar ko‘rsatilishi lozim:

notarius lavozimiga suhbat o‘tkazilayotgan davlat notarial idorasining nomi;

suhbatda ishtirok etuvchilarga qo‘yiladigan talablar;

suhbatda ishtirok etish uchun taqdim etiladigan hujjatlar va ularni taqdim etishning oxirgi sanasi. Bunda, hujjatlarni taqdim etish muddati e'lon berilgandan boshlab kamida 15 kun etib belgilanadi;

bog'lanish uchun telefon raqami va elektron pochta manzili;
suhbat o'tkaziladigan joy.

13. Suhbatda yigirma besh yoshdan kichik bo'lmagan va oltmish besh yoshdan katta bo'lmagan, oliy yuridik ma'lumotga, yuridik mutaxassislik bo'yicha kamida uch yillik ish stajiga ega bo'lgan, shu jumladan notarial idorada kamida bir yil stajirovka o'tagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi ishtirok etishi mumkin. Bunda, sudyalik lavozimida kamida besh yil ishlagan yoki notarius yordamchisi yoxud adliya organlarining notarial faoliyatga rahbarlik qilish va ushbu faoliyatni nazorat qilish bilan bog'liq lavozimlarida kamida uch yil ishlagan shaxslar uchun stajirovkadan o'tish talab qilinmaydi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, adliya organlarining ishi notariat faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan boshqaruv xodimi yoki advokat sifatida kamida uch yil ishlagan shaxslar, agar ularning vakolatlari tugatilgan paytdan e'tiboran besh yil o'tmagan bo'lsa, olti oy muddat stajirovka o'taydi.

Quyidagilar tanlovda ishtirok etishi mumkin emas:

muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxs;
qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganlik holati tugallanmagan yoki sudlanganligi olib tashlanmagan shaxs;

notarius, advokat, tergovchi, surishtiruvchi, prokuror, sudya yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning boshqa xodimi sifatidagi vakolatlari o'z kasbiy faoliyatiga mos kelmaydigan qilmishlar sodir etganligi uchun tugatilgan shaxs – uch [yil mobaynida](#).

14. Suhbatda ishtirok etish uchun talabgorlar e'longa asosan hududiy adliya organlariga quyidagi hujjatlarni elektron yoki yozma shaklda taqdim etgan holda murojaat qiladi:

mazkur Nizomning 1-ilovasiga muvofiq shaklda ariza;

mazkur Nizomning 2-ilovasiga muvofiq to'ldirilgan so'rovnoma;

Notariuslikka talabgorlar uchun Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida majburiy o'quv kurslarini tashkil etish tartibi to'g'risidagi [nizomga](#) (ro'yxat raqami 3721, 2025-yil 9-dekabr) muvofiq berilgan sertifikat.

Talabgor muqaddam notarius, advokat, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudya yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarning boshqa xodimi sifatida ishlagan bo'lsa,

uning ushbu lavozimlarda o'z kasbiy faoliyatiga mos kelmaydigan qilmishlar sodir etmaganligini aniqlash maqsadida tegishli tashkilotlardan ma'lumotlar olinishi mumkin.

Talabgordan mazkur Nizomda nazarda tutilmagan hujjatlarni taqdim etilishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

15. Talabgorning murojaati kelib tushgan kundan boshlab hududiy komissiya tomonidan 15 kun ichida ko'rib chiqiladi.

Kelib tushgan murojaatlar bo'yicha ish hujjatlarini yuritilishiga hududiy komissiyaning kotibi mas'ul hisoblanadi.

16. Talabgor tomonidan taqdim qilingan hujjatlari mazkur Nizomning 14-bandida nazarda tutilgan talablarga muvofiq bo'lmaganda hududiy komissiya tomonidan kamchiliklarni bartaf etish uchun qaytarib yuboradi.

Talabgorning hujjatlarini boshqa asoslarga ko'ra qaytarib yuborishga yo'l qo'yilmaydi.

17. Mazkur Nizomning 16-bandida ko'rsatib o'tilgan asos mavjud bo'lganda hududiy komissiyaning kotibi tomonidan murojaat kelib tushgan kundan boshlab uch ish kuni ichida talabgorning arizasida ko'rsatilgan elektron pochta yoki yashash manzili bo'yicha mazkur Nizomning 3-ilovasiga muvofiq shaklda xabarnoma yuboriladi.

18. Hujjatlari qaytarib yuborilgan talabgor hujjatlarni qaytarib yuborishga asos bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etgandan keyin, mazkur e'lon bo'yicha hujjatlarni taqdim etishning oxirgi sanasi o'tguniga qadar hujjatlarini qayta topshirishi mumkin.

Hujjatlarni qayta topshirmagan talabgor hujjat topshirmagan deb hisoblanadi, bundan qayta topshirmaganlik sababi uzrli deb topilgan holatlar mustasno.

19. Hududiy komissiya tomonidan o'rganish natijalariga ko'ra, talabgorning hujjatlari mazkur Nizomning 14-bandida nazarda tutilgan talablarga muvofiq deb topilgan taqdirda, talabgorning hujjatlarini komissiyaga taqdim etilishi yuzasidan xulosa hududiy komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadi.

20. Xulosa tasdiqlangandan so'ng, bir ish kuni ichida hududiy komissiya kotibi tomonidan talabgorlarning hujjatlari va xulosa komissiyaga yuboriladi hamda bu haqda talabgorlarning elektron pochta yoki yashash manzili bo'yicha xabarnoma yuboriladi.

21. Hududiy komissiyaning faoliyatidan norozi bo'lgan talabgorlar xabarnoma olgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida komissiyaga shikoyat qilishi mumkin.

Bunda, talabgor shikoyat arizasi bilan birgalikda mazkur Nizomning 14-bandida nazarda tutilgan hujjatlarni komissiyaga taqdim etadi.

22. Talabgorning Vazirlikka kelib tushgan hujjatlari ishchi organ tomonidan hududiy komissiyaning tegishli xulosasi kelib tushgan kundan boshlab 20 ish kuni ichida o'rganib chiqiladi.

Talabgorning suhbatda ishtirok etishini rad etishga asoslar mavjud bo'lsa, ishchi organ tomonidan bu haqda xulosa tuziladi. Mazkur xulosa komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadi.

23. Quyidagi asoslarga ko'ra talabgorning suhbatda ishtirok etishi rad etiladi: talabgor mazkur Nizomning 13-bandi talablariga javob bermaganda; hujjatlarda yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotlar aniqlanganda;

Talabgorning boshqa asoslarga ko'ra suhbatda ishtirok etishini rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

24. Talabgorlarning hujjatlarini o'rganish natijalariga ko'ra, ishchi organ tomonidan tegishli ravishda suhbat o'tkazish to'g'risida yoki suhbat o'tkazishga qayta e'lon berish to'g'risida xulosa tuziladi va u komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat o'tkazish to'g'risidagi xulosada suhbat o'tkaziladigan sana ko'rsatiladi.

25. Quyidagi hollarda ishchi organ tomonidan suhbat o'tkazishga qayta e'lon berish to'g'risida xulosa tuziladi:

suhbatda ishtirok etish uchun birorta ham talabgor bo'lmasa;

suhbatda ishtirok etish uchun taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra barcha talabgorlarning suhbatda ishtirok etishi rad etilgan bo'lsa.

Suhbat o'tkazishga qayta e'lon tegishli xulosa komissiya raisi tomonidan tasdiqlangan kundan boshlab yetti ish kuni ichida berilishi lozim.

Suhbatdan birorta ham talabgor muvaffaqiyatli o'ta olmagan taqdirda suhbat o'tkazishga qayta e'lon berish komissiya qarorida ko'rsatilgan muddatda amalga oshiriladi.

26. Suhbatda ishtirok etishi rad etilgan har bir talabgorga komissiya raisining tegishli xulosasi tasdiqlanganidan keyin bir ish kuni ichida komissiya mas'ul kotibi tomonidan arizada ko'rsatilgan elektron pochta yoki yashash manzili bo'yicha mazkur Nizomning 4-ilovasiga muvofiq shaklda xabarnoma yuboriladi.

27. Suhbatni o'tkazish bo'yicha tegishli xulosa tasdiqlangan kundan boshlab bir haftadan so'ng, lekin o'n besh kundan kechiktirmay o'tkaziladi.

Suhbat o'tkaziladigan kun, vaqt va joy haqida u o'tkaziladigan kundan kamida bir hafta oldin suhbat bo'yicha talabgorga uning arizasida ko'rsatilgan elektron pochta yoki yashash manzili bo'yicha mazkur Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakldagi xabarnoma yuboriladi hamda Vazirlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

3-bob. Suhbat o'tkazish tartibi

28. Komissiyaning bitta majlisida bir nechta talabgorlar ishtirok etishi mumkin. Talabgorlar suhbatga shaxsini tasdiqlovchi hujjatini ko'rsatgan holda qo'yiladi.

Komissiyaning bitta majlisida yagona tanlov yoki suhbat o'tkazilganda talabgorlar yagona tanlov yoki suhbatga navbat bo'yicha kiritiladi.

29. Suhbat komissiya raisi va komissiya a'zolari tomonidan talabgorga notariat sohasidagi nazariy va amaliy bilimlarini aniqlash maqsadida savollar berish tarzida o'tkaziladi.

30. Suhbat bo'yicha talabgor komissiyaning bitta majlisi davomida faqat bitta notarial okrug uchun suhbatda ishtirok etishi mumkin.

31. Suhbatni o'tkazish jarayonida talabgorlarga quyidagilar taqiqlanadi:
aloqa va telekommunikatsiya vositalari (telefon, kompyuter, planshet va boshqalar),
kitob hamda shpargalkalardan foydalanish;
boshqa talabgorlar bilan suhbatlashish;
suhbat tugamasdan xonadan tashqariga chiqish.

Talabgor mazkur bandning ikkinchi-to'rtinchi xatboshilaridagi talablarga amal qilmasligi uni suhbatda qatnashishdan chetlashtirish uchun asos bo'ladi. Ushbu holatda mas'ul kotib tomonidan mazkur Nizomning 6-ilovasiga muvofiq shakldagi dalolatnoma rasmiylashtiriladi va komissiya a'zolarining kamida uch nafari tomonidan imzolanadi.

32. Talabgor savollarga javob berib bo'lganidan so'ng xonadan chiqishiga ruxsat beriladi.

33. Suhbat yakuni bo'yicha talabgor suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan yoki muvaffaqiyatli o'tmaganligi komissiya a'zolarining umumiy ovoziga ko'ra aniqlanadi.

Suhbatda komissiya a'zolari talabgorlarni berilgan savollarga to'liq va aniq javob berishi, faoliyat sohasi bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi, ulardan o'z kasb faoliyatida mustaqil foydalanishni bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishiga qarab baholaydi.

Ovoz berish natijasiga ko'ra komissiya a'zolarining uchdan ikki qismi yoki undan ko'pi talabgorni muvaffaqiyatli o'tgan deb hisoblagan taqdirda u suhbatdan o'tgan deb topiladi.

Komissiya a'zolarining uchdan ikki qismidan kam ovoz olgan talabgor suhbatdan muvaffaqiyatli o'tmagan deb topiladi.

Ro'yxatdagi bitta notarial okrug uchun o'tkazilgan suhbatda ikki yoki undan ortiq talabgor ishtirok etgan holda komissiya a'zolari ovozining eng ko'p qismiga ega bo'lgan talabgor suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan deb topiladi. Komissiya a'zolari ovozlari teng bo'lib qolsa, komissiya raisining ovozi hal qiluvchi bo'lib hisoblanadi.

So‘nggi olti oy davomida suhbatda ketma-ket ikki marta muvaffaqiyatli o‘tolmagan talabgor uni takroran topshirishga keyingi suhbat o‘tkazilgan kundan boshlab kamida olti oydan keyin yo‘l qo‘yiladi.

34. Suhbatdan muvaffaqiyatli o‘tmagan va komissiya a‘zolarining yetarli ovozigga ega bo‘lmagan talabgorlarga ularning roziligi bilan komissiyaning ushbu majlisi davomida suhbat o‘tkazilgan, biroq undan muvaffaqiyatli o‘tmagan, shuningdek mazkur Nizomda belgilangan tartibda ikki marta e‘lon berilgan, lekin ushbu bo‘sh o‘ringa birorta ham talabgor suhbatda ishtirok etmagan boshqa bo‘sh notarius o‘rnida ishlash taklif etilishi mumkin.

35. Suhbat yakunlari bo‘yicha komissiya qaror qabul qiladi.

Qarorda quyidagilar ko‘rsatiladi:

raqami va qabul qilingan sanasi;

ishtirok etgan komissiya a‘zolari ro‘yxati;

suhbat natijalari;

suhbatdan muvaffaqiyatli o‘tgan deb topilgan, shuningdek suhbatdan muvaffaqiyatli o‘ta olmagan talabgorlar ro‘yxati;

suhbatdan muvaffaqiyatli o‘tgan deb topilgan talabgorlar tomonidan qasamyod qabul qilinganligi;

komissiya qarori ustidan shikoyat qilish tartibi.

Komissiya qarori rais tomonidan tasdiqlanadi.

36. Talabgorlarga komissiyaning ovoz berish natijalari hamda komissiya qarori suhbat o‘tkazilgan kunning o‘zida talabgorlarga o‘qib eshittiriladi.

37. Suhbat natijasiga ko‘ra bir nusxada komissiya qarori tuziladi.

Suhbatdan so‘ng uch ish kuni ichida suhbatdan muvaffaqiyatli o‘tgan talabgorni davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga tayinlash to‘g‘risida Adliya vazirining buyrug‘i chiqariladi.

Buyruq imzolangandan so‘ng bir ish kuni ichida buyruq va qarordan ko‘chirma suhbatdan muvaffaqiyatli o‘tgan talabgor bilan mehnat shartnomasi tuzish uchun hududiy adliya organiga yuboriladi.

4-bob. Talabgordan notarius qasamyodini qabul qilish

38. Suhbatdan muvaffaqiyatli o‘tgan deb topilgan talabgor komissiya majlisida O‘zbekiston Respublikasi “Notariat to‘g‘risida”gi [Qonunining](#) 3-moddasiga asosan quyidagi mazmunda qasamyod qabul qiladi:

“Notarius vazifasini halol va vijdonan bajarishga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga qat’iy rioya etishga tantanali qasamyod qilaman”.

39. Talabgor notarius qasamyodi matnini ovoz chiqarib o'qiydi va talabgor to'g'risidagi ma'lumotlar, qasamyod qabul qilingan sana va joy bayon etilgan tegishli hujjatni imzolaydi.

Mazkur hujjat ham komissiya qaroriga ilova qilinadi.

40. Suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan deb topilgan talabgorning notarius qasamyodini qabul qilishdan bosh tortishi uning notarius lavozimiga tayinlanishdan voz kechishi deb hisoblanadi.

5-bob. Davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga tayinlash

41. Suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan talabgor bilan mehnat shartnomasini tuzish va uni davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga tayinlashga Adliya vazirining buyrug'iga asosan hududiy adliya organi mas'ul hisoblanadi.

Suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan talabgor bilan mehnat shartnomasini tuzish va uni davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga tayinlash haqidagi hududiy adliya organi buyrug'i Adliya vazirining buyrug'i va komissiya qaroridan ko'chirma olingan kundan boshlab besh kundan kechiktirmay chiqariladi.

42. Davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga tayinlangan, biroq oxirgi uch yilda notarius, notarius yordamchisi, notarius stajyori yoki notarius kotibi lavozimida ishlamagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan dastur bo'yicha bir oylik amaliyotni o'taydilar.

Amaliyot o'tash davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga tayinlash to'g'risidagi buyruqda nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Notarial palatasining tegishli hududiy boshqarmasi hamda tegishli hududiy adliya organining kelishuviga asosan soha bo'yicha yetarli tajriba va ko'nikmalarga ega bo'lgan hamda notarius lavozimida kamida uch yil ishlayotgan notarius amaliyot murabbiyi etib belgilanadi.

43. Ro'yxatdagi notarial okruglarda kamida uch yil davomida notariuslik faoliyatini amalga oshirgan notarius o'z xohishiga ko'ra respublikaning istalgan boshqa hududida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius sifatida faoliyatini davom ettirish uchun komissiyaga ariza topshirishi mumkin.

44. Ariza komissiyaning navbatdagi majlisida ko'rib chiqiladi.

Notarius tomonidan arizada ko'rsatilgan notarial okrugdagi notariuslar soni belgilangan eng ko'p miqdorga teng bo'lgan taqdirda, komissiya tomonidan ariza bergan notariusga xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius lavozimi bo'sh bo'lgan boshqa notarial okruglar ro'yxati taqdim etiladi.

Bunda, taqdim etilgan ro'yxatdagi notarial okruglardan biri notarius tomonidan tanlanadi va komissiya tomonidan ushbu notarius tomonidan tanlangan notarial okrugda xususiy amaliyot bilan shug'ullanishi faoliyatini yuritishi mumkinligi yuzasidan qaror qabul qilinadi.

45. Notariusga komissiya qaroridan ko'chirma bir ish kuni ichida yuboriladi.

46. Notarius qarordan ko'chirmani olgandan so'ng xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziya olish uchun Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-iyuldagi 369-son qarori bilan tasdiqlangan Xususiy notarial faoliyatni litsenziyalash tartibi to'g'risida [nizomda](#) belgilangan tartibda litsenziyalovchi organga ariza bilan murojaat qiladi.

6-bob. Suhbatda ishtirok etishdan yoxud davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga tayinlanishdan voz kechish

47. Talabgor suhbatning har qanday bosqichida, shuningdek davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga tayinlash to'g'risidagi buyruq qabul qilingunga qadar voz kechishga haqli. Buning uchun talabgor bevosita Vazirlikka yoki tegishli hududiy adliya organiga ariza bilan murojaat etishi lozim.

Agar suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan deb topilgan talabgor suhbat o'tkazilgan kundan boshlab besh kun ichida tegishli hududiy adliya organiga mehnat shartnomasini tuzish va davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga tayinlanish uchun murojaat qilmasa, bu holat davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga tayinlanishdan voz kechish deb hisoblanadi, kelmaganlik sababi uzrli deb topilgan hollar bundan mustasno.

48. Agar suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan deb topilgan talabgor notarius lavozimiga tayinlash to'g'risidagi buyruq qabul qilingunga qadar notarius lavozimiga tayinlanishdan voz kechsa, suhbatda mazkur talabgordan so'ng eng ko'p ovoz olgan talabgor komissiya qarori asosida notarius lavozimiga tayinlanadi.

7-bob. Suhbat bo'yicha hujjatlarni yuritish

49. O'tkazilgan har bir suhbat bo'yicha materiallar, shu jumladan suhbat o'tkazish jarayoni qayd etilgan audio va videoyozuvlar elektron shaklda saqlanadi.

50. Suhbatni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan barcha hujjatlar har bir suhbat bo'yicha elektron shaklda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida doimiy saqlanadi.

8-bob. Yakuniy qoidalar

51. Komissiya qarorlari ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

52. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

Olis (chekka) va notarius lavozimiga talab yuqori
bo'lmagan hudud (notarial okrug)larda davlat
notarial idorasi notariusi lavozimiga talabgorlarni
Oliy malaka komissiyasi tomonidan suhbat asosida
tayinlash tartibi to'g'risidagi nizomga
1-ILOVA

Qoraqalpog'iston Respublikasi Adliya vazirligi,
viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari
huzuridagi hududiy komissiyasiga

(talabgorning yashash manzili va F.I.O.)

ARIZA

Menga "Inson va qonun" gazetasi (Adliya vazirligining rasmiy veb-sayti)ning 20__ yil "____" _____ da
berilgan e'loniga muvofiq _____ notariusi
lavozimiga tayinlash bo'yicha _____
(davlat notarial idorasining nomi)

suhbatda ishtirok etishga ruxsat berishingizni so'rayman.
Avval notarius lavozimiga tayinlash bo'yicha suhbatda (tanlov yoki malaka imtihonida)
20__ yil "____" _____ da
(suhbatda, tanlov yoki malaka imtihonida ishtirok etganda ko'rsatiladi)

ishtirok _____
(etmaganman yoki etganman)

Telefon raqamim: _____

Elektron pochta manzilim: _____

Pasport (identifikatsiya ID-karta) ma'lumotlarim:

(seriyasi)

(raqami)

(JSHSHIR)

(sana)

(imzo)


Olis (chekka) va notarius lavozimiga talab yuqori
bo'lmagan hudud (notarial okrug)larda davlat
notarial idorasi notariusi lavozimiga talabgorlarni
Oliy malaka komissiyasi tomonidan suhbat asosida
tayinlash tartibi to'g'risidagi nizomga
2-ILOVA

So'rovnoma

1. Familiyasi: _____

Ismi: _____

Otasining ismi: _____



2. Tug'ilgan sanasi: _____ yil "_____" _____.

3. Ma'lumoti: _____ Tamomlagan: _____
(sana)

(oliy ta'lim tashkiloti nomi)

Diplom bo'yicha mutaxassisligi: _____

Ilmiy darajasi, ilmiy unvoni (agar mavjud bo'lsa): _____

4. Mehnat daftarchasidan ish staji haqida ma'lumotlar:

T/r	Ishga kirish sanasi	Ishdan ketish sanasi	Ish joyi va lavozimi
1.			
2.			
...			

5. O'ziga nisbatan muomala layoqatini cheklash yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'g'risida sudning qarori mavjudligi: _____

6. Sudlanganlik holati: _____

7. So'rovnomadagi ma'lumotlarning haqiqiyliги va to'g'riligini tasdiqlayman.

So'rovnoma to'ldirilgan sana: 20 _____ yil "_____" _____.

Shaxsiy imzo _____

Olis (chekka) va notarius lavozimiga talab yuqori
bo'lmagan hudud (notarial okrug)larda davlat
notarial idorasi notariusi lavozimiga talabgorlarni
Oliy malaka komissiyasi tomonidan suhbat asosida
tayinlash tartibi to'g'risidagi nizomga
3-ILOVA

20__ yil "___" _____-son

Talabgor _____ ga
(F.I.O)

(yashash joyi)

XABARNOMA

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan _____
_____ notarius

(notarius lavozimiga suhbat o'tkazilayotgan davlat notarial idorasining nomi)
lavozimiga o'tkaziladigan suhbatda ishtirok etish uchun taqdim etgan hujjatlaringiz ko'rib chiqildi.

(hujjatlarni qaytarib yuborish asoslarini ko'rsatgan holda sanab o'tiladi)

sababli Olis (chekka) va notarius lavozimiga talab yuqori bo'lmagan hudud (notarial okrug)larda davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga talabgorlarni Oliy malaka komissiyasi tomonidan suhbat asosida tayinlash tartibi to'g'risidagi nizomning 17-bandiga muvofiq Sizning hujjatlaringiz qaytarib yuborilmoqda.

Mazkur Nizomning 18-bandiga muvofiq ushbu suhbat uchun berilgan e'lon bo'yicha hujjatlarni taqdim etishning oxirgi sanasi o'tguniga qadar hujjatlaringizni qayta topshirishingiz mumkin.

Hududiy komissiya kotibi

(imzo)

(F.I.O)

Olis (chekka) va notarius lavozimiga talab yuqori
bo'lmagan hudud (notarial okrug)larda davlat
notarial idorasi notariusi lavozimiga talabgorlarni
Oliy malaka komissiyasi tomonidan suhbat asosida
tayinlash tartibi to'g'risidagi nizomga
4-ILOVA

20__ yil "___" _____-son

Talabgor _____ ga
(F.I.O)

(yashash joyi)

XABARNOMA

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan _____
_____ notarius

(notarius lavozimiga suhbat o'tkazilayotgan davlat notarial idorasining nomi)
lavozimiga o'tkaziladigan suhbatda ishtirok etish uchun taqdim etgan hujjatlaringiz ko'rib chiqildi.

(suhbatda ishtirok etishni rad etish sabablari)

sababli Olis (chekka) va notarius lavozimiga talab yuqori bo'lmagan hudud (notarial okrug)larda davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga talabgorlarni Oliy malaka komissiyasi tomonidan suhbat asosida tayinlash tartibi to'g'risidagi nizomning 26-bandiga muvofiq Sizning suhbatda ishtirok etishingiz rad etildi.

Komissiya mas'ul kotibi

(imzo)

(F.I.O)

Olis (chekka) va notarius lavozimiga talab yuqori
bo'lmagan hudud (notarial okrug)larda davlat
notarial idorasi notariusi lavozimiga talabgorlarni
Oliy malaka komissiyasi tomonidan suhbat asosida
tayinlash tartibi to'g'risidagi nizomga
5-ILOVA

20__ yil "____" _____-son

Talabgor _____ ga
(F.I.O)

(yashash joyi)

XABARNOMA

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan _____
_____ notarius

(notarius lavozimiga suhbat o'tkazilayotgan davlat notarial idorasining nomi)

lavozimiga o'tkaziladigan suhbatda ishtirok etish uchun taqdim etgan hujjatlaringiz ko'rib chiqildi va Siz suhbatda ishtirok etishingiz mumkin.

Suhbat 20__ yil "____" _____ kuni soat __:__ da O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi binosida o'tkaziladi.

Komissiya mas'ul kotibi

(imzo)

(F.I.O)

Olis (chekka) va notarius lavozimiga talab yuqori
bo'lmagan hudud (notarial okrug)larda
davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga
talabgorlarni Oliy malaka komissiyasi
tomonidan suhbat asosida tayinlash
tartibi to'g'risidagi nizomga
6-ILOVA

**Olis (chekka) va notarius lavozimiga talab yuqori bo'lmagan hudud (notarial okrug)larda
davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga talabgorlarni Oliy malaka komissiyasi
tomonidan suhbat asosida tayinlash bo'yicha suhbatdan chetlashtirish haqida
DALOLATNOMA**

Toshkent shahri

20__ yil “__” _____

Biz, quyida imzo chekuvchilar shuni tasdiqlaymizki, Olis (chekka) va notarius lavozimiga talab yuqori bo'lmagan hudud (notarial okrug)larda davlat notarial idorasi notariusi lavozimiga talabgorlarni Oliy malaka komissiyasi tomonidan suhbat asosida tayinlash tartibi to'g'risidagi nizomning 31-bandi talablariga asosan talabgor _____ quyidagi sabablarga ko'ra

(*F.I.O*)

suhbatdan soat ____: ____ da chetlatildi:

- uyali telefon, boshqa aloqa va telekommunikatsiya vositalari, kitob hamda shpargalkalardan foydalandi;
- boshqa talabgorlar bilan suhbatlashdi;
- suhbat tugamasidan xonadan tashqariga chiqdi.

Komissiya a'zosi

(*imzo*)

(*F.I.O*)

Komissiya a'zosi

(*imzo*)

(*F.I.O*)

Komissiya a'zosi

(*imzo*)

(*F.I.O*)